

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI BIOLOGIYA DARSLARIDA
O'QUVCHILAR QIZIQISHINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY USULLAR**

*Ro'ziyeva Mulkiya Alijonovna
Samarqand viloyati Samarqand tumani
9-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Biologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablari biologiya darslarida o'quvchilar qiziqishini oshiruvchi zamonaviy usullar yoritilgan bo'lib, unda yangi pedagogik texnologiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy usullar, ahamiyatli, murakkab, innovatsion, tafakkur...

Biologiya fani qanchalar qiziqarli bo'lmasin, ammo ancha murakkab fandır. Shuning uchun bu fanni o'qitishda maktab yoshidagi bolalarga bir xona ichida o'qituvchi tomonidan yetkaziladigan mavzudagi turli xil atamalar bolalarni bu fanga bo'lgan qiziqishini yo'qotib qo'yishi mumkin. Shuning uchun maktab yoshidagi bolalarga turli xil zamonaviy metodlardan va innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bilamizki, maktablarda

doimiy ravishda bolalarga an'anaviy dars o'tish metodlari, ya'ni o'quv mavzusini og'zaki bayon qilish, suhbat, darslik va kitob bilan mustaqil ishlash, demonstratsiya, illyustratsiya (tasvirlash, rasmlar bilan ko'rsatish), ekskursiya, amaliy mashg'ulotlar (laboratoriya ishi) kabi metodlar shu paytgacha yaxshi samara berib kelgan bo'lsa-da, ammo hozirgi yoshlar bu metodlardan biroz zerikib qolayotganday. Endilikda ularni fanga qiziqtirish uchun yangi metodlardan foydalanishni davr taqozo qilmoqda, ya'ni innovatsion texnologiyalardan foydalanish fanni o'rgatish va o'quvchilarni o'zlashtirishiga yuqori samarador bo'lishini rivojlangan mamlakatlarda kuzatish mumkin. Shuningdek, o'quv- tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilandi.

“Juft-juft muloqot” usuli. Bu usul orqali sinf o'quvchilarini mavzu yuzasidan bilimlarini sinash, va xulosa qilish ko'nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda yonma-yon o'tirgan o'quvchilarga mavzuga oid topshiriqlar berilib, yechimini birgalikda topishga undash lozim. Masalan: O'z shaklini turlicha o'zgartiradigan bargli o'simliklar rasmini chizing va almashgan holatini izohlang. Yorug'liksevar o'simliklar barglarini chizib, ularda barglarning joylashuvi haqida ma'lumot bering.


“**Tafakkur mashqi**” usulida esa o‘quvchilar rasmlarda berilgan barglarni joylashuviga ko‘ra guruhlariga ajratishadi.



«**Biologik mashq**» usuli. Ushbu usulni quyidagi tartibda tashkil etish mumkin. O‘zbekistonda eng... uchib o‘tadigan ... qushlardan biri. Milliy va xalqaro ... bilan ... «Qizil kitob» ga I toifada – zaif tur, ... «Qizil kitob»ga - ..., tabiiy ... uchib o‘tadigan qush. Shuningdek, ... va ... «Qizil kitob»lariga kiritilgan.

«**Biologik mashq**»ning javobi. O‘zbekistonda eng noyob uchib o‘tadigan va qishlaydigan qushlardan biri. Milliy va xalqaro qonunchilik bilan muhofazalanadi. «Qizil kitob» ga I toifada – zaif tur, O‘zbekistonning «Qizil kitob»ga II toifada-zaif, tabiiy noyob uchib o‘tadigan qush. Shuningdek, Rossiya va Qozog‘istonning «Qizil kitob»lariga kiritilgan.

“**Imkoniyat**” usulida dars yakunida o‘zlashtirishi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarga o‘rganilgan mavzu bo‘yicha javobi tanlanadigan va javobi yoziladigan testlar tuzish topshiriladi. Bu vazifani a’lo darajada bajargan o‘quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o‘quvchilarda test yechgan o‘quvchiga nisbatan quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi. Jumladan, o‘z fikrini yozma tarzda izchil, aniq, tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o‘zi ham savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish hamda bilimni mustaqil ravishda oshirib borish va uni amaliyotda qo‘llay olish kabilar.



“Beshinchisi ortiqcha” usuli. O’quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: berilgan tushunchalar ro’yxatidan mavzuga taalluqli bo’lmagan tushunchalarni aniqlanib, ularni ro’yxatdan chiqariladi va animasi uchun chiqargani izohlanadi.

Xullas, bu metodlardan oqilona foydalanish va darslarni bir xil metodlardan emas, har bir mavzuga o’zgacha metodlardan foydalanish va o’quvchilarni o’zlashtirish darajasiga qarab metodlarni o’zgartirib borish lozim bo’ladi. Shu bilan bir qatorda, an’anaviy metodlarni ham qo’llab borish ancha samarali natijalarni beradi. Masalan, laboratoriya mashg’ulotini olib borayotganda o’qituvchi o’quvchini mustaqil faoliyat olib borishiga to’sqinlik qilmasligi lozim, chunki o’quvchi o’zi bajarib ko’rgan ishini yaxshiroq eslab qoladi yoki bo’lmasa ekskursiyaga chiqqanida yig’ilgan materiallarni o’zi xohlaganday mustaqil ravishda taxlab borishi lozim. Faqat o’qituvchi o’quvchilarga bajarayotgan ishlarini mazmunini va qanday bajarilishini og’zaki tushuntirib o’tishi lozim bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Hasanova Sh. Biologiya darslarida axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. / O’quv qo’llanma. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2012-yil.
2. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T-2006.
3. “Biologiya o’qitish metodikasi” G.O’rinova 2020-yil.